

## SUN'IY INTELEKT VA UNI IQTISODIYOTGA TA'SIRI

**Tursunov Farxod Baxodir o'g'li**

Termiz davlat universiteti "Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [farxoddd1007@gmail.com](mailto:farxoddd1007@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sun'iy intellektning rivojlanishi, jamiyatimizdagi ahamiyati va Iqtisodiyotdagi ahamiyati, Sun'iy intellektning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, mashinali o'qitish, tarafsizlik, kiberfiribgarlik.

### ABSTRACT

This article talks about the development of Artificial Intelligence, its importance in our society and its importance in the Economy, and the possible negative effects of Artificial Intelligence.

**Keywords.** Artificial intelligence, digital economy, machine learning, neutrality, cyber fraud.

### KIRISH

Sun'iy intellekt (Artificial Intelgence) – bugungi raqamlashgan jamiyatning rivojlanishi va o'zgarishining eng katta sababchilaridan biridir. Sun'iy intellekt – inson ongi bilan bog'liq xususiyatlarni o'zida jamlagan va ulardan foydalananda ma'lum bir qonunyalarni ishlab chiquvchi dastur yoki dasturlar majmuasidir. Sun'iy intellektning rivojlanishi ko'plab sohalarda keskin o'zgarishlar va yangilanishlarga olib keldi. Xususan sun'iy intellektning rivojlanishi iqtisodiy jarayonlarga ham jiddiy ta'sir eta boshladi. Hozirda SI turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritmlar hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. SIning yana bir muhim jihatlaridan biri kundalik hayotimizda to'lovlarni amalga oshirishdagi yangiligi. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo'q. Hisob-kitoblar bilan bog'liq barcha jarayonlar sun'iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu kabi jarayonlar raqamli iqtisodiyotni rivojlanishida ham hami vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi yana bir qadam bu davlatimiz rahbari tomonidan 2020 – yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi

ham katta voqeylik bo'ldi. Bu o'z navbatida nafaqat 2020 -yil uchun qo'llanma va dastur bo'ldi, balki keying yaqin kelajak uchun katta tarixiy rivojlanish uchun ilk qadam vazifasini bajardi.[1]

Sun'iy intellekt haqida yana ko'plab ta'riflar berishimiz mumkin. Sun'iy intellekt (SI) - bu ish o'rinlarini yaxshilash, yuqori samaradorlikni yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun inson aql-zakovatiga taqlid qiluvchi tizimlardir. Sun'iy intellekt faoliyati natijasida paydo bo'lgan intellektuallar samaradorlikni oshirish va biznes jarayonlari uchun yangi bilimlarni yaratish uchun zarur bo'lgan ko'plab resurslarga ega. Sun'iy intellekt - bu aqlli tizimlar xodimlar uchun texnologik platformalar orqali qimmatli ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilon Maskning fikricha, SI insoniyat sivilizatssiyasi uchun asosiy xavfdir. SI mehnat bilan bog'liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg'or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun'iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko'rmay qolishlari mumkin. Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to'xtalib o'tadi. Bir necha o'n yildan so'ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, SI shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo'shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman, -deydi Geyts. Boshqalar deganda Geyts Facebook egasi Mark Sukerbergni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Chunki, Mark Siga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: "Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. SIning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa, yaqin 5-10 yil ichidak o'ramiz", deya Ilon Maskning fikriga e'tiroz bildirgan edi.

Iqtisodiyotda sun'iy intellektning afzalliklari quyidagilardir: katta ma'lumotlarning namunalarini tezkor aniqlash, tezkor vizuallashtirish va tahlil qilish, takomillashtirilgan mahsulot dizayni, batafsil tahlil. Bu imtiyozlar iqtisodiy sohadagi xizmatning yangi turlarini yaratish, biznesning kengayishiga, foydaning oshishiga, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda samaradorlikni oshirishga hamda xarajatlarning kamayishiga olib keladi Sun'iy intellekt sohasida keng tarqalagan asosiy turlaridan mashinali o'rganish va chuqur o'rganishlardan korxonalar faoliyati yuritishda va mijozlar bilan ishlashda keng foydalanilmoqda. **Mashinali o'rganish** -bu kompyuterni ko'rish, robotni boshqarish, nutq va yuzni aniqlash va boshqalarni tanlash uchun sun'iy intellektning usuli.

AI salohiyatini tahlil qilib, tadqiqotchilar uni qo'llashning yangi yo'nalishlarini, birinchi navbatda, biznes jarayonlarini takomillashtirish bilan birgalikda izlay boshladilar. Ushbu sohada sun'iy intellektidan foydalanish biznes

jarayonlarini moslashuvchan qilish, an'anaviy manbalardan voz kechish va ilg'or AI tizimlari va odamlarni integratsiya qilish g'oyasiga o'tish imkonini beradi. Ushbu yondashuv mashina va odamning o'zaro ta'sirini tubdan o'zgartirishga va robotlar va odamlarning integratsiyalashgan jamoalarini shakllantirishga imkon beradi. Bunday jamoalar ishlab chiqarish operatsiyalari davomida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlashga, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga va doimiy o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga qodir.[2]

T.A.Gasanov va G.A.Gasanovlar keltirgan ta'rifga ko'ra, raqamli iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash deganda, yetakchi ilmiy yutuqlar va ilg'or texnologiyalarga, birinchi navbatda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdagi institutsional kategoriyalar tizimi bo'lib, uning amal qilishi yalpi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash maqsadida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab turishga qaratiladi [3]

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Sun'iy intellekt va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati iqtisodiy – statistik tahlil qilindi. Sun'iy intellektning rivojlanishi haqida ma'lumotlar to'plandi. To'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi usullardan samarali foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida iqtisodiy jarayonlarda quyidagi muammolar kelib chiqishi mumkinligi ta'kidlanmoqda.

Noto'g'ri javoblar - Sun'iy intellektdan foydalanishdagi eng muhim xavflardan biri bu noto'g'ri, ammo aql bovar qilmaydigan ma'lumotlarni taqdim etish tendensiyasidir. ChatGPT kabi tizimlar mavjud bo'lmagan faktlarni taqdim etishi mumkin, ya'ni faktlarni yaratishi mumkin.

**Maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish** - Sun'iy intellektga taqdim etilgan har qanday ma'lumot "o'qitadigan" ma'lumotlar to'plamining bir qismiga aylanishi mumkin. Shuning uchun, biror-bir kompaniyaning maxfiy yoki yopiq ma'lumotlari nazariy jihatdan ma'lum bir kompaniyadan tashqari har qanday foydalanuvchi uchun javoblarga kiritilishi mumkin.

**Tarafsizlik** - Sun'iy intellekt tizimlari, masalan, fuqarolarning irqiga qarab noto'g'ri xulosalar chiqarishi mumkin. Bu esa bir qator sohalarda, xususan, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish sohaslarida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Intellektual mulk va mualliflik huquqi** - Sun'iy intellekt mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan katta ma'lumotlar

to'plamlarida o'qitiladi. Binobarin, bunday botlarning ish natijalari noqonuniy foydalanilgan intellektual mulkka asoslangan bo'lishi mumkin.

**Kiberfiribgarlik** - Kiber makonda buzg'unchi shaxslar sun'iy intellekt vositalaridan yolg'on ma'lumot yaratish, fishing kampaniyalarini tashkil qilish va zararli kod yozish uchun foydalanishlari mumkin. Bu Internet foydalanuvchilari uchun qo'shimcha tahdidlarni keltirib chiqaradi.

**Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish** - Iste'molchilarga sun'iy intellektdan foydalanishni oshkor qilmaydigan kompaniyalar o'z mijozlarining ishonchini yo'qotishlari va "adolatsiz bozor amaliyotlari" da ayblanish xavfi paydo bo'ladi. Hozirgi sharoitda real sektorda sun'iy intellekt bo'yicha amaliy yechimlarni joriy qilishni kuchaytirish va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini raqamli transformatsiyalashni jadallashtirish zarur.

Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, sun'iy intellekt strategiyalari nafaqat tajriba loyihalarida, balki biznesni to'liq o'zgartirish uchun ham qo'llanilishi kerak. Bundan tashqari, sun'iy intellekt xarajatlarni kamaytirishdan ko'ra sotishning o'sishi uchun foydaliroqdir va sun'iy intellektning rivojlanishi xorijiy texnologiyalardan foydalanishdan ko'ra ko'proq foyda keltiradi. Tadqiqotchilar, shuningdek, kompaniya rahbariyatiga sun'iy intellektni kompaniya boshqaruv direktorlariga emas, balki undan haqiqatan ham foydalana oladiganlar qo'lga topshirishni tavsiya qiladi, chunki bu holda texnologiyani joriy etishdan real foyda olish imkoniyati 50% ga kamayadi.[4]

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish kerakki, Suniy intellektning rivojlanishi barcha sohalar kabi iqtisodiyotda ham o'zining sezilarni tasirni o'tkazmasdan qolmadi. Albatta bu ikki tomonlama ta'sir qilmoqda – ham ijboy ham salbiy. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanar ekanmiz uni ijobiy jihatlaridan tashqar biz yuqorida sanagan olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarig ham tayyor turishimiz kerak. Sun'iy intellektdan unumli foydalanish fan, iqtisodiyot, ta'lim ijtimoiy hayot va boshqa jabhalarda yangiliklar va muhim o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Albatta bunda me'yor va miqdorni hisobga olgan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. F.B.Tursunov, R.R.G‘aniyeva “ Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining o‘rni” // maqola. – “ Yangi O‘zbekistonda ilm fanning so‘nggi yutuqlari” Respublika ilmiy amaliy anjuman. 2023 – yil. 572-575 -b
2. Yo‘ldosheva N. Umarov A. Abdullayev A. “ Sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi” // maqola. “Qo‘qon Universiteti xabarnomasi” jurnal. 73-75 - betlar
3. Gasanov T.A. va Gasanovlar G.A. Цивровое экономика в информационно-коммуникационном системе. – М., 2018 г. С. 25
4. Sun‘iy intellekt texnologiyalarining Iqtisodiyot va biznesga ta‘siri. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz) maqola 2023 – yil. 25 -sentabr
5. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.
6. [www.imv.uz](http://www.imv.uz)